GEOGRAFIK OMILLARNING AHOLI SALOMATLIGIGA TA’SIRI

Mo‘minov Doniyor G‘ulomovich
Qo‘qon davlat universiteti, doniyorjonmuminov71@gmail.com
Raxmonova Xosiyatxon Fayzullo qizi
Qo‘qon davlat universiteti, rahmonovagulizar5@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada aholi salomatligi, kasalliklar tarqalishining hududiy jihatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Nozogeografik tadqiqotlarda hisobga olinishi zarur bo‘lgan tabiiy-geografik komponentlar, iqtisodiy-ijtimoiy geografik omillar izohlangan. Xususan, O‘zbekiston viloyatlari kesimida kasallik turlarining tarqalishi haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologiya, nozogeografiya, iqlim, havo sifati, geografik determinizm, Orol dengizi, yuqumli kasalliklar, aholi salomatligi.*

Kirish. Aholi salomatligi tibbiyot geografiyasi fanining tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [5]. Inson hayoti va xo‘jalik faoliyati davomida yuzaga keluvchi kasalliklar ko‘p holatda ularning yashayotgan hududiga bog‘liq. Geografik joylashuv nafaqat iqlim yoki tabiat sharoitlarini belgilaydi, balki kasalliklarning hududiy tarqalishida ham asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Aholi salomatligiga ta’sir etuvchi omillar orasida nafaqat tabiiy-geografik, balki iqtisodiy-ijtimoiy omillarning ham ta’siri katta [6, 13]. Shu bois geografik omillarni tibbiy-geografik va iqtisodiy-ijtimoiy geografik nuqtai nazardan tahlil qilish aholi salomatligini saqlash va hududiy sog‘lomlashtirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos hisoblanadi.

Hududiy tahlilda tabiiy landshaftlardan iqtisodiy-ijtimoiy geografik foydalanish masalalari [7], shuningdek, GIS va ko‘p mezonli tahlil usullari [14] ham keng qo‘llanilmoqda.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi

Aholi salomatligiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishda geografik joylashuv muhim determinantlardan biri hisoblanadi. Turli olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda inson salomatligi faqat biologik va ijtimoiy omillargagina emas, balki tabiiy-geografik sharoitlar, iqlim, relyef, suv va havo sifati kabi omillarga ham bevosita bog‘liqligi qayd etilgan. Ob-havo va geomagnit faollikning inson organizmiga ta’siri ham alohida tadqiqot obyekti bo‘lgan [2].

Masalan, D. Morris [9] o‘zining “Geography and Health” asarida kasalliklarning hududiy tarqalishi va ularning iqlim bilan bog‘liqligini tahlil qilib, geografik joylashuvni salomatlikka ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida ta’riflagan. Keyinchalik P. Haggett [3] “Geography of Diseases” nomli tadqiqotida geografik joylashuvning epidemiologik jarayonlarda tutgan o‘rni, tabiiy zonalarning kasalliklar shakllanishiga ta’siri haqida keng ma’lumot bergan.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo hududida o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham tabiiy-geografik sharoit bilan aholi salomatligi o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik aniqlangan [5]. A. Axmedov [1] o‘zining “Hududiy sog‘lomlashtirish siyosati va ekologik xavfsizlik” nomli ishida O‘zbekistonning cho‘l, tog‘ va vodiy hududlarida aholi kasalliklari tarkibida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatgan. Tog‘li hududlarda yurak-qon tomir kasalliklari nisbatan kam uchrasa, sanoatlashgan vodiy hududlarida nafas yo‘llari va allergik kasalliklar yuqori darajada ekanini ta’kidlagan.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ekologik muhit va yashash joyining sanitariya holati aholining umr ko‘rish davomiyligiga o‘rtacha 20–25% gacha ta’sir ko‘rsatadi [4]. Ayniqsa, suv resurslarining ifloslanishi, havodagi chang va kimyoviy moddalar

konsentratsiyasi oshgan hududlarda bolalar orasida nafas yo‘li kasalliklari va allergiyalar keskin ortgani aniqlangan.

Ekologik-geografik omillar bilan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ham salomatlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. A. To‘xtasinov [15] o‘z tadqiqotlarida aholi daromad darajasi past bo‘lgan, infratuzilmasi sust rivojlangan qishloq hududlarida sanitariya sharoitlarining yomonligi tufayli yuqumli kasalliklar tarqalish xavfi yuqori ekanini ko‘rsatgan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, geografik joylashuv va tabiiy sharoitlar aholi salomatligining hududiy farqlarini belgilovchi asosiy omillardandir. Shu bois geografik tahlilga asoslangan sog‘liqni saqlash siyosatini ishlab chiqish va har bir hudud uchun individual sog‘lomlashtirish choralarini belgilash zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, inson salomatligi tabiiy muhit bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu munosabatni izohlashda geografik determinizm nazariyasi alohida o‘rin tutadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, insonning hayot sifati, kasallik turlari va umumiy sog‘lomlik darajasi yashayotgan hududning tabiiy-geografik sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi [8, 12, 16]. Shuning uchun ham salomatlik muammolarini tahlil qilishda geografik joylashuv va ekologik omillarni inobatga olish zarur.

Mamlakatimiz viloyatlarida joylashgan hududlarning geografik sharoiti hamda boshqa omillarga ko‘ra kasallik turlari turlicha tarqalgan (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekistonda eng ko‘p tarqalgan kasallik turlarining ayrim viloyatlar kesimidagi ulushi

	Viloyat / hudud	**Yurak-qon tomir kasalliklari, %**	**Umumiy sog‘lomlik darajasi, %**	**Oshqozon-ichak kasalliklari, %**	**Yuqumli kasalliklar, %**	**Boshqa kasalliklar, %**
1	Toshkent shahri	28	22	17	24	18
2	Toshkent viloyati	27	20	9	18	31
3	Andijon viloyati	31	18	10	25	15
4	Farg‘ona viloyati	32	19	13	23	15
5	Namangan viloyati	30	21	14	20	14
6	Samarqand viloyati	26	20	12	23	19
7	Qashqadaryo viloyati	25	18	10	25	22
8	Surxondaryo viloyati	24	19	12	23	20
9	Buxoro viloyati	22	17	16	13	24
10	Navoiy viloyati	9	20	15	14	28
11	Xorazm viloyati	8	23	20	18	11
12	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	30	26	29	23	20

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining “O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash” hujjati asosida tuzilgan [10].

Jadval ma’lumotlarida shuni ko‘rishimiz mumkinki, aholi o‘rtasida uchraydigan va keng tarqalgan kasalliklar bir mintaqa yoki bir mamlakatning barcha hududlarida bir xil holatda emas, ya’ni ular hududlar bo‘yicha tarqalish tezligi, egallagan maydoni, joylashuvi va turli holatlariga ko‘ra kasallanish soni farq qiladi.

O‘zbekiston hududida kasalliklarning tarqalishi viloyatlar bo‘yicha muhim tafovutlarga ega ekanini ko‘rishimiz mumkin. Aholi salomatligining geografik taqsimoti, asosan, tabiiy-iqlim sharoiti, ekologik holat va urbanizatsiya darajasi bilan chambarchas bog‘liq [13].

Tahlil qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, yurak-qon tomir kasalliklari asosan Farg‘ona vodiysi viloyatlarida (Andijon, Farg‘ona, Namangan) va Toshkent shahrida yuqori darajada qayd etilgan. Bu holat aholi zichligi, transport vositalaridan chiqadigan gazlar miqdori va psixologik zo‘riqish omillari bilan izohlanadi. Bunday yirik va aholi zich joylashgan shaharlarda turli yuqumli kasalliklar tarqalishi ham oson kechadi. Shunday ekan, ushbu hududlarning aholi salomatligiga ta’sir etuvchi omillarini hisobga olib, ya’ni tibbiy geografiya asosida aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish muassasalarini yetarli va tizimli joylashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz hamda butun jahon global muammolaridan biriga aylanib borayotgan Orol muammosi ham yon-atrofda istiqomat qilayotgan aholi salomatligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Orol dengizining qurishi nafaqat ekologik muammolar, shu bilan birga aholi salomatligida salbiy oqibatlar tug‘dirmoqda. Jumladan, nafas olish tizimi kasalliklari, allergik va immun tizimi kasalliklari, qon va yurak-qon tomir kasalliklari, ichak va jigar kasalliklari, teri va suyak tizimida kuzatiladigan kasalliklar aholining turli yosh qatlamlariga ko‘ra tarqalmoqda.

Orolbo‘yi hududida ekologik falokat natijasida nafas olish va onkologik kasalliklar ko‘p uchrasa, tog‘li hududlarda past kislorod bosimi yurak-qon tomir tizimi kasalliklariga sabab bo‘ladi. Nafas yo‘llari kasalliklari Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida nisbatan ko‘p uchraydi. Ushbu hududlarda ekologik muammolar, xususan, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan chang-tuz bo‘ronlari va atmosfera ifloslanishi salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday kasalliklar tashqi ta’sirlar natijasida orttirilgan bo‘lib, ularning ommalashishi asosan buzilgan ekologik muhit bilan bog‘liq. Ekologik holat o‘zgarishi uzoq vaqt talab qilgani sababli, bu ta’sir ostida vujudga kelgan kasalliklar ushbu hududga mansub doimiy kasalliklarga aylanadi.

Oshqozon-ichak kasalliklari Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ko‘proq qayd etilgan bo‘lib, bu ichimlik suvi sifati va oziqlanish madaniyatiga bog‘liq omillar bilan izohlanadi. Aslida bunday kasalliklarni global miqyosda ham kuzatish mumkin, chunki turmush tarzi, ovqatlanish odatlari va jismoniy harakatlar deyarli barcha hududlarda o‘xshash holatda. Bu kasalliklar nafaqat tabiiy sharoit, ekologik muhit yoki iqlim omillari, balki aholining o‘z turmush tarzi bilan ham bog‘liq.

Yuqumli kasalliklar (ayniqsa respirator infeksiyalar va virusli kasalliklar) ko‘proq aholi zich joylashgan shahar hududlarida kuzatiladi. Shu bilan birga, Buxoro va Navoiy viloyatlarida sog‘lomlik darajasi nisbatan yuqori bo‘lib, bu hududlarda atrof-muhitning tozaligi, aholi sonining nisbatan kamligi, sanitariya madaniyatining yuqoriligi hamda ishlab chiqarish tarmoqlari bosimining hududga nisbatan yengilligi bilan izohlanadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston viloyatlari kesimida kasalliklarning tarqalishi notekis bo‘lib, u ko‘p jihatdan hududning tabiiy-geografik xususiyatlari, ekologik muammolar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va sanitariya madaniyati bilan bevosita bog‘liqdir. Aholi salomatligining nisbatan past darajasi kuzatilgan hududlarda – Toshkent shahri, Farg‘ona vodiysi viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida – aholi zichligi bilan bog‘liq ekologik tig‘izlik va havoning ifloslanishi salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi xavfli omillar sifatida ajralib turadi.

Tadqiqot natijalari aholining sog‘lom hayot tarzini shakllantirish, ekologik holatni yaxshilash va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatdi:

Ekologik monitoringni kuchaytirish: havoning, suvning va tuproqning ifloslanish darajasini muntazam nazorat qilish, avvalgi ma’lumotlar asosida kelgusi jarayonlarni prognozlash va choralar ishlab chiqish;

Hududiy sog‘liqni saqlash dasturlarini ishlab chiqish: har bir viloyatning iqlim va sanoat sharoitiga mos profilaktik choralarni, hududning geografik va boshqa xususiyatlariga asoslangan islohotlarni ishlab chiqish;

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish: aholining jismoniy faolligi, to‘g‘ri ovqatlanish va zararli odatlardan voz kechishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish, aholi o‘rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish, ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ekologik va tibbiy tarbiyani joriy etish;

Tibbiy xizmatlar infratuzilmasini yaxshilash: ayniqsa, ekologik jihatdan noqulay hududlarda diagnostika va davolash imkoniyatlarini kuchaytirish, aholi zichligi va soniga ko‘ra yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish uchun sanitariya va epidemiologik muassasalarni tizimli joylashtirish;

Geografik tahlil asosida sog‘lomlik xaritalarini yaratish: hududiy kasallik xavf zonalarini aniqlash, ularning tarqalishini oldini olish va rejalashtirishda qo‘llash.

Xulosa qilib aytganda, aholi sog‘lomligini ta’minlashda geografik yondashuv muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tabiiy, ekologik va ijtimoiy omillar o‘zaro uyg‘un tahlil qilinishi zarur. Shundagina hududiy farqlarni kamaytirish va umumiy sog‘lomlik darajasini oshirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Axmedov A. Hududiy sog‘lomlashtirish siyosati va ekologik xavfsizlik. [nashr ma’lumotlari], 2016.

2.Breus T.K., Komarov F.E., Rapoport S.I. Geomagnit faollik va ob-havoning inson rivojlanishiga ta’siri haqida. arXiv preprint. 2008. https://arxiv.org/abs/0810.0457

3.Haggett P. Geography of Diseases. [nashr ma’lumotlari], 2001.

4.Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST). Havo sifati va sog‘liq haqida hisobot. Jeneva: JSST nashriyoti, 2023. [to‘liq havola; matnda 2022-yil ko‘rsatilgan edi, yilni tekshiring]

5.Karimova N.M. O‘zbekistonda tibbiy geografiyani olib borish muammolari. Academia.edu, 2023. [to‘liq havola]

6.Meliboyeva F.S. Ishlab chiqarishning geografik xususiyatlari va inson kuchi. Muhandislik tadqiqotlari va texnologiyasida innovatsiyalar xalqaro jurnali, 8(9), 2021, 1–6. [to‘liq havola]

7.Mo‘minov D.G‘. Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy-ijtimoiy geografik foydalanishning ba’zi masalalari. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. FarDU, 2024, 1-son.

8.Monteskye Sh. [asar nomi va nashr ma’lumotlari], 1748.

9.Morris D. Geography and Health. [nashr ma’lumotlari], 1957.

10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash. Statistik to‘plam. [yil va havola]

11. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Aholi holati bo‘yicha statistik ma’lumotlar to‘plami – 2022. Toshkent: Statistika agentligi nashriyoti, 2023. [to‘liq havola]

12. Ratsel F. [asar nomi va nashr ma’lumotlari], 1897.

13. Subramanian S., Kumar D., Patel N. Urbanizatsiya jarayonida ekologik va sog‘liq o‘rtasidagi bog‘liqlik. Atrof-muhit tadqiqotlari va jamoat salomatligi xalqaro jurnali, 19(18), 2022, 11234. [to‘liq havola]

14. Tobirov O., Muminov D. va b. Identification of mudflow-prone areas in the Shakhimardan tourist and recreation zone using multi-criteria analysis and GIS. Geografický časopis / Geographical Journal, 76(3), 2024. DOI: 10.31577/geogrcas.2024.76.3.00 [DOI ni tekshiring]